




# POLAND

INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
ONLINE CONFERENCE

## SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH



30 MAY  
2024 YEAR

POLAND, WARSAW





**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES



# **SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH**

**International scientific-online conference**

**Part 21**

**May 30<sup>th</sup>**

**COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

**WARSAW 2024**





**SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH:** a collection scientific works of the International scientific online conference (30<sup>th</sup>May, 2024) – Poland, Warsaw : "CESS", 2024. Part 21- 443 p.

Chief editor:

**Candra Zonyfar** - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia  
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

**Martha Merrill** - PhD Kent State University, USA

**David Pearce** - ScD Washington, D.C., USA

**Emma Sabzalieva** - PhD Toronto, Canada

**Languages of publication:** русский, english, қазақша, o'zbek, polish, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference " **SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH** ". Which took place in Warsaw on May 30, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024  
© Authors, 2024



<b>Алимова Мохичехра Музафаровна</b> <i>РЕПРЕССИВНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ (1920-1930 зз.)</i>	<b>130</b>
<b>Toshova Matluba</b> <i>“MAKTABDA TEXNOLOGIYA FANINI O’QITISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH”</i>	<b>143</b>
<b>Nazarov Alisher Abdisamadovich</b> <i>USULI QADIM VA USULI JADID MAKTABLARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI</i>	<b>147</b>
<b>To‘rayeva Shirinmoh Ne‘mat qizi</b> <i>“RUHLAR ISYONI” DOSTONIDA SHAXS ERKI MASALASI</i>	<b>152</b>
<b>Sayfullayev Sirojjon Ikrom og‘li</b> <i>MAMLAKATIMIZNING EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.</i>	<b>162</b>
<b>Tilavoldiyeva D.X. Bekaliyeva S.R.</b> <i>ZAHARLI FUGU BALLIG‘INING BIOLOGIK AHAMIYATI</i>	<b>168</b>
<b>Tilavoldiyeva D.X Inomova S.SH Abdukarimova H.A</b> <i>TUG‘MA YURAK POROGI:-SABABLARI, TASNIFI, TASHXISLASH, DAVOLASH, ASORATLARI, OQIBATI</i>	<b>171</b>
<b>Tilavoldiyeva D.X. Yoqubjonov O.E., Halilova M.</b> <i>KANALARNING MARFOLOGIK TUZILISHI VA PROFILAKTIKASI</i>	<b>175</b>
<b>Раджабова М.М Абдуллоева Н</b> <i>МЕТАФОРИЧЕСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ</i>	<b>179</b>
<b>Boboyeva Muyassar Norboyevna Ochilova Niginabonu Abduvoxid qizi</b> <i>BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISH</i>	<b>183</b>
<b>Erkinova Zarina Zafar qizi Hayitov Asilbek Rizamat o‘g‘li</b> <i>“YASHIL IQTISODIYOT” - XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI</i>	<b>185</b>
<b>Davronov Faxriddin Shodmonov Jurabek</b>	<b>188</b>



## BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISH

**Boboyeva Muyassar Norboyevna**

*Buxoro davlat universiteti*

*Matematik analiz kafedrasida katta o'qituvchisi*

*[m.n.boboeva@buxdu.uz](mailto:m.n.boboeva@buxdu.uz)*

**Ochilova Niginabonu Abduvohid qizi**

*Buxoro davlat universiteti talabasi*

*[ochilovanigina61@gmail.com](mailto:ochilovanigina61@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinflar o'quvchilari orasida matematika darsini qay tartibda o'tish, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish masalalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** matematika, mantiqiy masalalar, mantiqiy fikrlash, matematik tenglama.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish boshlang'ich matematik ta'limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan o'quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta'lim mazmuni va o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o'zaro aloqadorlikda va o'quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo'shgan holda o'qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda matematik masalalar yechishning ahamiyati matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi. Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan natijalar orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar

o'quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda o'quvchilar o'rtasida matematik tenglama va mantiqiy fikrlashni oshirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Hayotning har jabhasida matematik tenglamalar bor. Ularni oson, sodda va ravon tilda tushuntirish darslar davomida an'anaviy mantiqiy tenglamalarni yechib borishi yuqori sinfga borayotgan o'quvchilarni fanni oson tushunishiga yordam bersa, hayotiy ko'nikmalarning mustahkamlanishi kelajakda unga dastur bo'lib xizmat qiladi.

### **Mantiqiy masala:**

1. Sotib oldim beshta ayiq,  
Suvga soldim beshta qayiq,  
O'ylab ko'rib aytingchi,  
Suvda nechta ayiq, nechta qayiq.

O'quvchilarimiz bu masalani eshitishlari bilan 60-70% i 10 ta deb javob beradi, lekin men sotib olishim mumkin bo'lgan o'yinchoq ayiqlarni hisobga olmay javob berishadi. Ayiqlarni suvga solib qayiqqa solish kerakligini kechroq anglashadi. Matematik mantiqiy masalalar o'quvchilar dunyoqarashini ham kengaytirib hayotiy ko'nikmalarini oshirib boradi.

2. Sinfda 32 ta o'quvchi o'qiydi, ulardan 24 tasi rus tilini biladi, 16 tasi ingliz tilini biladi.

Nechtasi har ikki tilni biladi?

Javob: 8 tasi

3. Ikkita bodringni 12 bo'lakka bo'lish uchun, pichoq bilan ularni necha marta kesish mumkin?

Javob: 10 marta

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azimjon Qosimov "Aqlga quvvat birliklar"-T., "Yangi asr avlodi"2014
2. Boboyeva M., Qutliyeva Z. (2019). Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. *J. Global Research in Math. Archives*, 6(11), 10-12.
3. Boboyeva M.N. Increasing creative activity of students by application of methods of analysis and synthesis in mathematics lessons. *Research Jet Journal of Analysis and Inventions*. 3:05 (2022), p.67-75.
4. Boboyeva M.N. Maktab matematika darslarida misol-masalalar yechish orqali turli kasblarga oid ma'lumotlarni singdirish. *Science and Education* 2:8 (2021), 496-504 b.
5. Boboyeva M.N. Differensial hisobning iqtisodda qo'llanilishini takomillashtirish istiqbollari. *Science and Education* 2:8 (2021),476-485 b.